O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
G.Sh.Rixsiyeva
_______________
2025-yil "30" 06 ______

# MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI (TURK)

# FANINING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200000 – San'at va gumanitar fanlar

**Ta'lim sohasi:** 230000 – Tillar

**Mutaxassislik:** 70230104 – Adabiyotshunoslik (sharq tillari bo'yicha)

**Toshkent–2025**

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori ____________ Mirzaxmedova X.V.

Turkshunoslik oliy maktabi boshlig‘i ____________ Aripov M.P.

ARM boshlig‘i ____________ Yuldasheva M.M.

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>MNM1206</td><td>O‘quv yili<br>2025/2026</td><td>Semestr<br>1, 2</td><td colspan="2">ECTS - Kreditlar<br>4, 4</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>4, 4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Mutaxassislikning nazariy masalalari (turk)</td><td>96</td><td>144</td><td>240</td></tr>
</table>

**2.**

## I. Fanning mazmuni

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – magistrlarga o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti (turk)ning nazariy masalalari “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyot nazariyasi”, “O‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti (turk)”, “Jahon adabiyoti tarixi” fanlarida o‘rganilayotgan milliy badiiy adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanish qonuniyatlari va xarakteri, metodlari, janrlari, poetikani tashkil qiladigan asarning badiiy tili, uslubi, turli badiiy – tasviriy va ifodaviy vositalari to‘g‘risida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – mazkur fan magistrlarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, adabiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, shuningdek, magistrlarni mutaxassisligidan kelib chiqqan holda adabiyotshunoslikdagi matn tahlili va talqinini amaliyotga tadbiq etishni hamda badiiy matnni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirish vazifasini bajaradi.

**Xorij tajribasiga muvofiqligi:**

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro‘yxatga kiruvchi Yaqin Sharq texnika universiteti (Middle East Technical University (QS-284)) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

https://turk.metu.edu.tr/tr/turk-dili-bolumu-tarafindan-verilen-dersler

## II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Mutaxassislikning nazariy masalalari fan sifatida**

Adabiyot nazariyasining ob’yekti, predmeti, maqsad va vazifalari. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari. Edebiyat nedir? (Adabiyot o‘zi nima?)

**2-mavzu. Adabiyot va mafkura**

Mafkura va adabiyot munosabati. Badiiy ijodda ijtimoiylik va shaxsiylik.

Estetik ideal va uning qirralari.

**3-mavzu. Obrazlilik va obraz**

Badiiy obraz vositasida tafakkur qilish (obrazlilik) san'atning spetsifik xususiyati sifatida. Inson obrazi va uni yaratish vositalari. Karakterler: Sıradan ya da Özgün, Kahraman ve Karşıt Kahraman (Asardagi obrazlar: Oddiy yoki o'ziga xos xarakterlar, bosh qahramon hamda unga zid qahramon).

**4-mavzu. Badiiy asar haqida**

Badiiy asar – badiiy kommunikatsiya vositasi. Badiiy asar sistem butunlik sifatida. Edebi metinlerin özellikleri (Adabiy matnlarning xususiyatlari).

**5-mavzu. Badiiy nutq**

Badiiy nutqning spetsifik xususiyatlari va shakllari. Badiiy nutqning adabiy til hamda milliy til tushunchalari bilan munosabati. Edebiyat Dili: Kavram ve Düşünce. (Badiiy adabiyot tili: Tushuncha va tafakkur.)

**6-mavzu. Nutqiy semantika. Ko'chimlar**

Ko'chim (trop) – semantik sathdagi normadan og'ish. Ko'chimlar tasnifi.

**7-mavzu. O'zlashtirish estetikasi, badiiy asarning talqini va tahlili**

Adabiy matnni uqish va o'zlashtirish muammosi. Badiiy asarni tahlil qilish san'ati. Badiiy asarni kontekstual tahlil qilish yo'llari. Edebi eser inceleme yöntemleri (Adabiy asarlarni tahlil qilish usullari).

**8-mavzu. Talqiniy yondashuvlar yoxud maqsadli tahlil**

Badiiy asarda yozuvchi taqdiri yoki tarixiy-biografik yondashuv. Mangu asar yoxud ontologik yondashuv.

**9-mavzu. Talqiniy jarayon: tahlil yo'llari, maqsad va vazifalari**

Satrlar ruhiga singish yoxud mikroanaliz imkoniyatlari. So'z qimmati, imo-ishoralar ma'nosi yoxud strukturali-semantik tahlil. Badiiy uslubning shakllanishida folklorizm unsurlari.

**10-mavzu. Adabiy jarayon**

Adabiyot taraqqiyotining ichki va tashqi omillari. Milliy adabiyotlar taraqqiyotidagi stadial umumiylik. Adabiy jarayonni davrlashtirish.

## III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Mutaxassislikning nazariy masalalari (turk)" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash

bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va nazariy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Mutaxassislikning nazariy masalalari (turk)" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Turk adabiyotshunosligida nazariy masalalar
2. Badiiy adabiyotning ichki tuzilishi (turk adabiyoti misolida)
3. Turk adabiyotida zamonaviylik va yozuvchining ijtimoiy-axloqiy qiyofasi. Seçilen edebi eserin sosyolojik olarak incelenmesi (Tanlab olingan badiiy asarning sotsiologik jihatdan tahlil qilinishi).
4. Badiiy adabiyotda an'ana va novatorlik (turk adabiyoti asosida)
5. Badiiy adabiyotda tipiklashtirish (turk adabiyoti misolida). Roman ve Öykü (Roman va hikoya).
6. Turk yozuvchilari ijodida obraz yaratish mahorati (S.Ali, R.N.Guntekin va b.). Karakter yaratma (Obraz yaratish).
7. Adabiyotda ommaviylikning hayotiy obrazlar orqali tasvirlanishi
8. Badiiy adabiyotda mazmun va shakl birligi
9. Turk adabiyotida ijodiy metod tushunchasi
10. Badiiy adabiyotda ijodkor uslubi
11. Turk adabiyotida uslubiy o'ziga xoslik. Şiir ve Tiyatro. (She'r va Drama).
12. Turk adabiyotshunosligida adabiy turlar va janrlar. Edebi Türler. (Adabiy janrlar).
13. Badiiy adabiyotning eng muhim va umumiy xususiyatlari. Seçilen esere edebi yaklaşım (Tanlab olingan asarga adabiy yondashuv).
14. Turk adabiyotida adabiy matnni uqish va o'zlashtirish masalasi
15. O'.Kamol hikoyalarining badiiy tahlili
16. H.Taner dramalarining badiiy tahlili
17. Turk adabiyotida badiiy matn talqini
18. Turk adabiyotida tarixiy-biografik yondashuvga munosabat. Kurmacadan Öykülemeye giden yol (Badiiy to'qimadan hikoya yaratish usullari).
19. Turk yozuvchilarining uslubiy o'ziga xosligi va uslubiy xilma-xillik
20. Turk adabiyotidan badiiy asar tahlili. Türk edebiyatından seçilmiş bir eser (Turk adabiyotidan tanlab olingan bir asar tahlili).
21. Turk nasriy asarlarining strukturali-semantik tahlili
22. O.Veysel she'rlarining badiiy tahlili
23. Turk asarlarida badiiylikning ko'rinishlari
24. Badiiy asarni qiyosiy tahlil qilish metodi

## IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalami o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

**"Mutaxassislikning nazariy masalalari (turk)"** fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. "Adabiyot va zamonaviylik" mavzusida taqdimot tayyorlash
2. "San'atkor uslubi" mavzusida tezis tayyorlash
3. "Turk adabiyotshunosligida adabiy tanqid" mavzusida ilmiy ma'ruza tayyorlash
4. "Turk yozuvchilari ijodida milliylik va umuminsoniylik (S.F.Abasiyoniq, M.Esendal va b.)" mavzusida taqdimot tayyorlash
5. "Uslubiy o'ziga xoslik (turk ijodkorlari misolida)" mavzusida ijodiy ish tayyorlash
6. "Zamonaviy turk yozuvchilari ijodining o'ziga xos individualligi (S.Chokum, Firuzan ijodi)" mavzusida referat tayyorlash
7. "Zamonaviy turk yozuvchilari ijodida realizm" mavzusida tezis tayyorlash
8. "Zamonaviy turk shoirlari ijodida modernizm" mavzusida taqdimot tayyorlash
9. "Folklor va folklorshunoslik" mavzusida ilmiy ma'ruza tayyorlash
10. "Turk folklorida janrlar masalasi" mavzusida tezis tayyorlash
11. "She'riy nutq – lirik turning shakli sifatida" mavzusida referat tayyorlash
12. "Turk shoirlari ijodida aruz nazariyasi" mavzusida taqdimot tayyorlash
13. I.Shinosiy dramalarining badiiy tahlilini bajarish. Tanzimat dönemi (Tanzimoy davri).

<table>
<tr><td></td><td>14. N.Kamol romanlarining badiiy tahlilini bajarish<br>15. S.P.Sezai hikoyalarining badiiy tahlilini bajarish<br>16. H.Ziyo romanlarining badiiy tahlilini bajarish. Servet-i Fünun dönemi (Sarvat-i Funun davri).<br>17. H.A.Adivar romanlarining badiiy tahlilini bajarish<br>18. M.E.Yurdakul she'rlarining badiiy tahlilini bajarish. Şiir inceleme yöntemleri (She'r tahlil qilish usullari).<br>19. M.A.Erso'y she'rlarining badiiy tahlilini bajarish<br>20. Y.Kemal she'rlarining badiiy tahlilini bajarish<br>21. A.Hoshim she'rlarining badiiy tahlilini bajarish<br>22. M.SH.Esendal hikoyalarining badiiy tahlilini bajarish<br>23. O.Veysel she'rlarining badiiy tahlilini bajarish<br>24. U.Sayfiddin hikoyalarining badiiy tahlilini bajarish<br>Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.<br>Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISda ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.</td></tr>
<tr><td>3</td><td>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)<br>Talaba bilishi kerak:<br>• mutaxassislikning nazariy masalalari fanining asoslarini, badiiy asarning mazmun-mohiyatini anglay olishi va undagi nazariy masalalar haqidagi tasavvurga ega bo'lishi kerak;<br>• mamlakat adabiyotshunosligining dolzarb nazariy masalalarini ajrata olishi, tadqiq va tahlil etishni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;<br>• badiiy asar tuzilishi, uning shakl va mazmunini, badiiy asar sujeti, kompozitsiyasi, badiiy til, inson obrazini yaratish yo'llari va vositalari, adabiy jarayon, badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, adabiy tur va janrlar, uslub va metod tushunchalari, badiiy adabiyotdagi turli oqim va yo'nalishlar bo'yicha yechimlarni qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</td></tr>
<tr><td>4</td><td>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| | • guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, mavzular doirasida turk tilidan ona tiliga va ona tilidan turk tiliga tarjima qila olish, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lish, grammatik mavzular haqida mustaqil mushohada yurita olish uchun magistrantlar quyidagi talablarni to‘liq bajarishlari kerak:<br>• har bir darsga muntazam ravishda (yozma va og‘zaki vazifalarni bajargan holda) tayyorgarlik ko‘rish va darslarda faol ishtirok etish;<br>• mustaqil ta’lim bo‘yicha barcha topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish;<br>• joriy, oraliq nazorat bo‘yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ish va/ yoki og‘zaki imtihonni topshirish. |
| 6 | **VIII. ASOSIY VA QO‘ShIMChA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI**<br>**Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Fitrat A. Tanlangan asarlar: IV jild. Darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar (Mas’ul muharrir B.Qosimov). –T.: Ma’naviyat. 2006.<br>2. Расулов А. Танкид, талқин, баҳолаш. -Т.: Фан, 2006.<br>3. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. -Т.: Шарқ, 2007.<br>4. Қуронов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик луғати / Академнашр. Т-2010.<br>5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr. 2018.<br>6. Karataş T. Ansiklopedik Edebiyat Terimleri Sözlüğü. Sütun Yayınları, İzmir-2014.<br>7. Korkmaz R. Yeni Türk Edebiyatı. Grafiker Yayınları. Ankara-2021.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar:**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: O‘zbekiston, 2024.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O’zbekiston, 2023.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. -Toshkent: O‘zbekiston, 2022.<br>5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan |

| | |
|---|---|
| | ikkinchi nashri. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.<br>6. Аристотель. Поэтика (Поэзия санъатлари ҳақида).-Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.<br>7. Елўқ В., Кенжаева П. Кутилмаган меҳмон. Академнашр.Т-2011.<br>8. Бинафша. (тарж. П.Кенжаева). Мумтоз сўз, Т-2015.<br>**Scopusdan maqolalar:**<br>1. Alagozlu A., Sara S. Language and cognition: Is critical thinking a myth in Turkish educational system? // Procedia Social and Behavioral Science. 2 (2010) 782-786. doi:10.1016/j.sbspro.2010.03.102. www.sciencedirect.com<br>**Axborot manbalari:**<br>1. http://sbe.gazi.edu.tr/<br>2. http://www.sosyalbilimler.hacettepe.edu.tr/<br>3. http://tde.deu.edu.tr/<br>4. http://sosyalbilimler.istanbul.edu.tr/<br>5. http://www.sosbilen.ege.edu.tr/<br>6. http://www.turkishlanguage.org |
| 7 | Fanning o‘quv dasturi Turkshunoslik oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025 yil “25” 06 dagi 21 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil “28” 06 dagi 11 -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8 | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>P.Kenjayeva – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Turkshunoslik oliy maktabi professori, f.f.d. |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>A.Tilavov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (turdosh OTM);<br>V.S.Yelok - Anqara Hoji Bayram Vali universiteti (Turkiya), Zamonaviy turkiy tilllar va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (turdosh OTM). |